2023-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda 669 ta agrosanoat klasteri faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan paxta-to'qimachilik klasterlari 153 ta, g'allachilik klasterlari 126 ta, meva-sabzavotchilik klasterlari 136 ta tashkil etadi. Klasterlar tomonidan sohaga 510 million dollar investitsiya jalb qilingan. Biroq, klaster tizimining samaradorligi ko'p jihatdan moliyaviy ta'minotga, xususan, davlat tomonidan berilayotgan subsidiyalarga bevosita bog'liqdir. Davlat subsidiyasi klasterlarning ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish hamda eksport salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Davlat subsidiyasi klaster subyektlariga yo'naltiriladigan moliyaviy yordam shakli bo'lib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. 2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulot ishlab chiqaruvchilarga 840 milliard so'm subsidiya ajratilgan. Bunda suv tejovchi texnologiyalarga 26,4 milliard so'm, bog'dorchilikni rivojlantirishga 99,2 milliard so'm ajratildi.

Tadqiqotning maqsadi davlat subsidiyalarining klasterlar moliyaviy barqarorligiga ta'sirini statistik tahlil asosida baholash va subsidiya taqsimotini

optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot masalalari: davlat subsidiyalari ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash; yoqilg'i xarajatlari, tuproq unumdorligi va asosiy vositalarning subsidiyalarga ta'sirini baholash; subsidiya taqsimotidagi muammolarni aniqlash va yechim yo'llarini taklif etish. Tadqiqotning dolzarbligi yoqilg'i narxining o'sishi, suv tanqisligi va inflyatsion bosim sharoitida davlat yordamining strategik yo'naltirilishi iqtisodiy barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega bo'lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot 2018-2023 yillar davridagi O'zbekiston qishloq xo'jaligi klasterlari faoliyati statistik ma'lumotlariga asoslangan. Ma'lumotlar Qishloq xo'jaligi vazirligi, Statistika agentligi va Markaziy bankning rasmiy hisobotlaridan olingan.

Tadqiqot uchun paxta-to'qimachilik (153 ta), g'allachilik (126 ta), meva-sabzavotchilik (136 ta) klasterlari tanlangan. Jami 415 ta klaster ma'lumotlari tahlil qilindi. Vaqt davri 2018-2023 yillarni qamrab oldi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish uchun Stata 18.0 statistik dasturi qo'llandi. Tadqiqotda quyidagi metodlar ishlatildi: deskriptiv statistika, korrelyatsiya tahlili va OLS regressiya modeli. Regressiya tenglamasi quyidagicha ifodalandi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \beta_4 X_4 + \beta_5 X_5 + \varepsilon$$


Bu yerda Y – davlat subsidiyasi, X_1 – yoqilg'i xarajati, X_2 – tuproq unumdorligi, X_3 – suv ta'minoti, X_4 – texnika xarajati, X_5 – asosiy vositalar, β_0 – doimiy hadlar, β_1 - β_5 – regressiya koeffitsientlari, ε – xatolik hadi.

Diagnostic testlari sifatida avtokorrelyatsiya testi, normal taqsimot testi (Q-Q plot) va geteroskedastiklik testi amalga oshirildi. Marginal ta'sirlar tahlili uchun delta-usuli qo'llandi. Modelning sifatini baholash uchun R^2 , F-statistika, p-qiyamatlar, AIC va BIC ko'rsatkichlari hisoblandi. Barcha statistik testlar 5% ahamiyatlilik darajasida amalga oshirildi ($\alpha = 0.05$).

Tahlil va natijalar

Chap yuqori burchakdagi Sequence plot orqali ko'rishimiz mumkinki, davlat subsidiyalari yildan-yilga izchil o'sish yo'lida borgan. Bu chiziqli trend grafigi bo'lib, ijobiy yo'nalishdagi o'zgarishni anglatadi. First difference plot esa har bir davrda o'zgarishlar qanday bo'lganini ko'rsatadi – bunda ayrim yillarda o'sish kuchli, ayrim yillarda esa sekinlashgani ko'rinadi. Bu – moliyaviy ajratmalarda barqarorlik to'liq emasligini bildiradi.


Sixplot for Davlat_subsidiyasi_mlrd



1-rasm. Davlat subsidiyasining sixplot chizmasi

Quyi o'ng burchakdagi Normal quantile plot (Q-Q plot) va Histogram grafiklari subsidiyalarning taqsimoti haqida ma'lumot beradi. Histogramda har bir qiymat bir xil chastotada takrorlangan, bu esa boshqa statistik testlar uchun muvozanatli taqsimot ekanini bildiradi. Q-Q plotdagi nuqtalar deyarli to'g'ri chiziq ustida joylashgan – bu normal taqsimotga yaqin ekanligini ko'rsatadi.

O'ng yuqoridagi Boxplot orqali subsidiyalar hajmining tarqalishi ko'rsatilgan. Bu yerda mediana, kvartillar va chekka qiymatlar aniqlanadi. Grafikda keskin chiqindilar (outlier) ko'rinmayapti, bu esa ma'lumotlar izchil ekanligini bildiradi. Residual vs Fitted plot esa qoldiq (residual) qiymatlar regressiya modeli bo'yicha qanday taqsimlanganini ko'rsatadi – nuqtalar 2σ (standart og'ish) oralig'ida joylashgan, bu moslashuv yaxshi bo'lganidan dalolat beradi. Mazkur grafiklar Davlat subsidiyalari (mlrd so'mda) bilan yoqilg'i xarajatlari va tuproq unumdorligi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Har bir grafikda ko'k nuqtalar – haqiqiy kuzatuvlar, qizil chiziq esa – regressiya chizig'i (fitted values) sifatida aks etgan.



2-rasm. O'zgaruvchilar chiziqli munosabatining scatterplot chizmasi

2-rasmda ko'rsatilganidek, yoqilg'i xarajatlari oshgani sari davlat subsidiyalari ham ortgan. Regressiya chizig'i deyarli barcha nuqtalar bilan mos tushgan, bu esa ularning o'rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya mavjudligini bildiradi. Ya'ni, qishloq xo'jaligidagi texnik ishlar va logistika xarajatlari ko'paysa, davlat tomonidan ajratiladigan subsidiya ham ko'paygan. Bu grafik ham birinchi grafikni takrorlaydi, ammo u balki turli model yoki boshqa o'lchovdagi takroriy regressiyani ko'rsatadi. Unda ham yoqilg'i xarajatlari bilan davlat yordami o'rtasida chiziqli aloqa mavjud. Bunday tengliklar siyosiy qarorlar asosida yoqilg'i narxlari subsidiyalarga qanday ta'sir qilishini modellash uchun ishlatiladi. Bu grafikda tuproq unumdorligi ortgan sari subsidiyalar hajmi ham oshgan. Bu aloqaning iqtisodiy izohi – unumdor yerga ega bo'lgan hududlar ko'proq mahsulot yetishtiradi, bu esa ko'proq davlat ko'magini talab qiladi yoki oladi. Regressiya chizig'i aniq mos tushgan, bu esa barqaror va chiziqli bog'liqlikni ko'rsatadi.

Bu grafikda ham yuqoridagi holat qayta tasdiqlangan: tuproq unumdorligi va davlat subsidiyasi o'rtasida mustahkam ijobiy bog'liqlik mavjud. Bu holatda ham barcha nuqtalar regressiya chizig'iga juda yaqin joylashgan bo'lib, bu natijani statistika nuqtai nazaridan ishonchli qiladi. Shuningdek, bu indikatorlar rejalashtirish siyosatida foydalanilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligidagi klasterlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda davlat subsidiyalari hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ushbu subsidiyalar, ayniqsa, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va investitsion faollikni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Quyidagi asosiy o'zgaruvchilar subsidiyaning samaradorligini tahlil qilishda bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar quyida mulohaza qilinmoqda.

Klasterlar faoliyatining asosiy elementi bo'lgan texnik vositalar (traktor, kombayn, sug'orish uskunalari) ishlashi uchun zarur bo'lgan yoqilg'i mahsulotlari narxining o'sishi, ishlab chiqarish tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Agar yoqilg'i xarajatlari yuqori bo'lsa, ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi va klaster moliyaviy bosim ostida qoladi. Bunday sharoitda davlat subsidiyasining mavjudligi yoqilg'i xarajatlarini qoplash orqali foydalilik ko'rsatkichlarini muvozanatda ushlab turadi. Regressiya natijalari ham shuni ko'rsatadiki, yoqilg'i xarajatlarning har bir birligiga to'g'ri keladigan subsidiyadagi ijobiy bog'liqlik klasterlarning moliyaviy sog'lomligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tuproqning tabiiy unumdorligi yuqori bo'lgan hududlarda ishlab chiqarish natijalarining yuqori bo'lishi kutiladi. Bu bevosita klasterlarning daromad bazasini oshiradi. Shunga qaramay, hatto unumdor tuproqli hududlarda ham texnik va moliyaviy cheklovlar mavjud bo'lishi mumkin. Shu sababdan, davlat tomonidan tuproq unumdorligini saqlash va oshirishga yo'naltirilgan subsidiyalar (masalan, o'g'it xarajatlari, agrotexnik tadbirlar) klasterlarga uzoq muddatli foyda keltiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tuproq unumdorligi va subsidiyalar o'rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya mavjud bo'lib, bu barqaror ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlaydi.

Suv resurslariga kirish imkoniyati – ayniqsa qurg'oqchil hududlarda – agroklastlar barqarorligining muhim omilidir. Tomchilatib sug'orish, suvni tejovchi texnologiyalar va irrigatsiya tizimlarining yangilanishi davlat subsidiyasiz deyarli amalga oshmaydi. Shu sababli, suv ta'minoti qoniqarli bo'lmagan hududlarda subsidiya ajratilishi orqali ishlab chiqarish barqarorligi saqlab qolinadi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, suv bilan ta'minlanganlik darajasining past bo'lishi subsidiyalarga talabni oshiradi, ya'ni ular o'rtasida salbiy, ammo iqtisodiy jihatdan izohli bog'liqlik mavjud.

Klastlar o'z faoliyatini yuritishda turli turdagi texnikalardan keng foydalanadi. Ularning yangilanishi, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xarajatlari doimiy xarajatlar qatoriga kiradi. Bu xarajatlar yuqori bo'lganda, davlat subsidiyalari bu bosimni yumshatib, ishlab chiqarishni to'xtatib qo'ymaslik uchun moliyaviy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, texnikani zamonaviylashtirish orqali mahsulot sifati va hosildorlik oshadi, bu esa klaster moliyaviy ko'rsatkichlariga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1-jadval

OLS model regressiya natijalari

Davlat_subsidiyasi (mlrd. So'm)	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
Yoqilgi xarajati (mlrd. so'm)	1.145	.185	6.19	.025	.349	1.941	**
Tuproq unumdorligi	12.00	2.755	4.36	.049	.155	23.863	**
Suv taminoti	-101.9	230.31	-4.40	.048	-2004.934	-23.049	**
Texnika xarajati mlrd	-.107	.05	-2.12	.168	-.323	.11	
Asosiy vositalar mlrd	.054	.008	6.63	.022	.019	.09	**
Constant	83.6	99.89	0.84	.49	-346.106	513.481	
Mean dependent var		151.250	SD dependent var			60.872	
R-squared		0.780	Number of obs			8	
F-test		1950.417	Prob > F			0.001	
Akaike crit. (AIC)		31.437	Bayesian crit. (BIC)			31.913	

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

$$\text{Davlat_subsidiyasi} = 83.688 + 1.145 \cdot \text{Yoqilgi_xarajati} + 12.009 \cdot \text{Tuproq_unumdorligi} - 1013.992 \cdot \text{Suv_ta'minoti} - 0.107 \cdot \text{Texnika_xarajati} + 0.054 \cdot \text{Asosiy_vositalar}$$

Model bo'yicha yoqilg'i xarajatlari har bir birlikka (1 mlrd so'm) oshganida, davlat subsidiyasi o'rtacha 1.145 mlrd so'mga oshadi. Bu o'rtadagi bog'liqlik statistik jihatdan ishtirok etuvchi omil ($p = 0.025$) bo'lib, u 5% ishonch darajasida muhim ta'sirga ega ekanligini bildiradi. Bu degani, qishloq xo'jaligida energiya xarajatlari ortganda, davlat klasterlarni qo'llab-quvvatlash uchun subsidiya ajratishni ko'paytiradi.

Tuproq unumdorligi indeksining 1 birlikka oshishi davlat subsidiyalarini oʻrtacha 12.009 mlrd soʻmga oshiradi. Bu oʻzgaruvchi ham $p = 0.049$ koʻrsatkichga ega boʻlib, 5% darajada statistik ahamiyatga ega. Bu shuni anglatadiki, unumdor hududlarda davlat subsidiyasi koʻproq ajratiladi, chunki u yerda ishlab chiqarish natijador va eksportbop mahsulot yetishtirish imkoniyati katta boʻladi.

Bu oʻzgaruvchi kutilmagan natijani koʻrsatmoqda – suv taʼminoti oshgan sayin subsidiyalar kamaymoqda, yaʼni ularning oʻrtasida salbiy bogʻliqlik mavjud. Koʻrsatkich -1013.992 boʻlib, 1 birliklik yaxshilanish subsidiyani 1 mlrd soʻmga kamaytiradi. Bu iqtisodiy jihatdan shunday izohlanadi: suv taʼminoti yaxshi boʻlgan hududlarda davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash ehtiyoji pastroq boʻladi.

Texnikaga xarajatlarning koʻpayishi davlat subsidiyasiga salbiy taʼsir koʻrsatadi, yaʼni koeffitsient -0.107 . Biroq, bu oʻzgaruvchining p -qiymati $= 0.168$ boʻlgani uchun, u statistik jihatdan ishonchli emas deb hisoblanadi. Bu texnika xarajatlari oʻz-oʻzidan subsidiyalarga barqaror taʼsir koʻrsatmasligini anglatadi.

Asosiy vositalar – bu klasterning ishlab chiqarish quvvatini belgilovchi asosiy aktivlardir. Bular orasiga yer maydonlari, texnikalar, binolar, omborlar va qayta ishlash uskunalari kiradi. Davlat subsidiyasi aynan asosiy vositalarning yangilanishiga yoki kengaytirilishiga yoʻnaltirilsa, klasterlar uzoq muddatda oʻz-oʻzini moliyalashtirish darajasiga erishadi. Tahliliy model shuni koʻrsatdiki, asosiy vositalar qiymatining oshishi bilan subsidiyalar hajmi oʻrtasida ijobiy bogʻliqlik mavjud boʻlib, bu rivojlanish va kengayish ehtiyojining davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanayotganini bildiradi. Yuqoridagi barcha mustaqil oʻzgaruvchilar klasterlar moliyaviy faoliyatining ustuvor elementlarini ifodalaydi. Davlat subsidiyasi esa – ushbu elementlarning barqaror ishlashi va oʻsishiga yordam beruvchi asosiy moliyaviy vositadir. Har bir oʻzgaruvchi orqali iqtisodiy modelda subsidiyaning ahamiyati statistik jihatdan asoslangan va ijobiy natijalar bergan. Shu sababli, klasterlarni qoʻllab-quvvatlash siyosatida davlat subsidiyasini strategik instrument sifatida doimiy takomillashtirib borish zarur.

Asosiy vositalar qiymatining oshishi subsidiya hajmini oshiradi – har bir birlik (1 mlrd soʻm) asosiy vosita oʻsishi subsidiyani 0.054 mlrd soʻmga oshiradi. Bu bogʻliqlik $p = 0.022$ boʻlib, statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Demak, aktivlari koʻp boʻlgan klasterlar koʻproq subsidiya oladi, chunki ular samarali faoliyat yuritishga tayyor boʻladi. Modelda doimiy aʼzo (constant) qiymati 83.688 boʻlib, mustaqil oʻzgaruvchilar 0 ga teng boʻlganda ham, davlat subsidiyasining mavjudligi saqlanib qolishini anglatadi. Biroq bu oʻzgaruvchi statistik ahamiyatga ega emas ($p = 0.49$), yaʼni bu qiymat aniq talqin uchun unchalik muhim emas.

Modelning R-squared qiymati $= 0.78$ boʻlib, bu regressiya modelidagi mustaqil oʻzgaruvchilar davlat subsidiyalaridagi oʻzgarishlarning 78 foizini tushuntirib beradi degani. Bu yaxshi koʻrsatkich hisoblanadi, yaʼni model kuchli mos kelgan.

Mazkur OLS model orqali shuni aytish mumkinki, yoqilg'i xarajatlari, tuproq unumdorligi va asosiy vositalar qiymati davlat subsidiyasiga ijobiy va statistik ahamiyatli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, suv ta'minoti subsidiyani kamaytirishi mumkin, bu esa mintaqaviy siyosatni differensial yondashuv bilan olib borish zarurligini bildiradi.

2-jadval

**Klasterlar bo'yicha davlat subsidiyalari taqsimoti
(2023-yil, milliard so'm)**

Yo'nalish	Subsidiya hajmi	Ulushi (%)
Chorvachilik	638,3	76,0
Bog'dorchilik	99,2	11,8
Suv tejovchi texnologiyalar	26,4	3,1
Ipakchilik va qorako'lichilik	76,0	9,1
Jami	840,0	100,0

Manba: Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida muallif hisoblari

2023-yilda qishloq xo'jaligi klasterlari bo'yicha davlat subsidiyalari 840 mlrd so'mni tashkil etdi; ulushning 76 foizi (638,3 mlrd so'm) chorvachilikka ajratildi, bu oziq-ovqat xavfsizligi va ichki talabni qondirishga qaratilgan strategiyani aks ettiradi. Bog'dorchilik 99,2 mlrd so'm (11,8%) bilan ikkinchi o'rinda turdi, mevasabzavot eksportini rivojlantirish maqsad qilindi. Ipakchilik va qorako'lichilik an'anaviy soha sifatida 76,0 mlrd so'm (9,1%) ni egalladi. Suv tejovchi texnologiyalarga esa atigi 26,4 mlrd so'm (3,1%) ajratildi, bu qurg'oqchilik sharoitida resurslar samaradorligini oshirishga qaratilgan cheklangan sarmoyani ko'rsatadi.

Suv tejovchi texnologiyalar bo'yicha subsidiya tarkibi:

- G'allachilik yo'nalishi: 18,5 mlrd. so'm
- Kartoshka: 1,6 mlrd. so'm
- Ozuqabop ekinlar: 5,0 mlrd. so'm
- Sabzavotchilik: 1,3 mlrd. so'm
- Bog'dorchilik (tomchilatib sug'orish va infrastruktura): 99,2 mlrd. so'm

2023-yilda klaster va fermer xo'jaliklariga quyidagi miqdorda imtiyozli kreditlar ajratilgan:

3-jadval

Klasterlarni kreditlash (2023-yil)

Yo'nalish	Miqdor (trln. so'm)	O'zgarish
G'alla yetishtirish	5.052	+1.1 trln. (+28%)
Paxta yetishtirish	9.8	+1.2 trln. (+14%)
Terim xarajatlari	3.6	-
Meva-sabzavot	0.322	-
JAMI	18.774	-

Manba: Qishloq xo'jaligi rivojlantirish jamg'armasi

Kreditlar taqsimotidagi muvozanatsizlik an'anaviy sohalarning hukmronligi va diversifikatsiya siyosatiga to'sqinlik qilishini ko'rsatadi. Chorvachilikka qaratilgan subsidiyalar va paxta-g'allaga yo'naltirilgan kreditlar resurslarning diversifikatsiyalangan iqtisodotga o'tish zaruratiga qaramay an'anaviy tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashda davom etayotganligini anglatadi. Meva-sabzavot, bog'dorchilik va suv tejovchi texnologiyalar kabi yuqori rentabell va barqaror sohalarga nisbatan chetlashtirilgan moliyalashtirish ularning rivojlanish salohiyatini cheklaydi. Samarali qishloq xo'jaligi siyosatini amalga oshirish uchun subsidiyalar va kreditlarni qayta taqsimlash kerak bo'lib, an'anaviy sohalarni qo'llab-quvvatlash bilan birga yangi va yuqori daromad keltiradigan yo'nalishlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan muvozanatlangan yondashuv talab etiladi.

Kreditlarni so'ndirish darajasi:

- G'alla bo'yicha: 4.766 trln. so'm (94%)
- Paxta terim bo'yicha: 3.2 trln. so'm (97%)
- Meva-sabzavot bo'yicha: 0.285 trln. so'm (89%)

Tadqiqot natijalari davlat subsidiyalarining klasterlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi rolini o'ynashini tasdiqladi. Yoqilg'i xarajatlari bilan subsidiyalar o'rtasidagi kuchli ijobiy bog'liqlik O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligi tarmoqlarining energiya va texnikaga yuqori darajada bog'liqligini aks ettiradi.

Qishloq xo'jaligida minglab gektar yerlarni haydash, ekinlarni sug'orish, hosilni yig'ib-terib olish uchun traktorlar, kombaynlar va nasoslar zarur. Yoqilg'i narxi oshgan sayin ishlab chiqarish tannarxi ortadi. Masalan, 2019-2023 yillarda inflyatsiya darajasi 10-15,2 foiz oralig'ida o'zgargan, bu esa ishlab chiqarish xarajatlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Tahlil natijalariga ko'ra, yoqilg'i xarajatlari 1 milliard so'mga oshganda davlat subsidiyasi 1,145 milliard so'mga ortishi davlatning narx o'zgarishlariga reaktiv yondashuvda ekanligini ko'rsatadi.

Tuproq unumdorligi bilan subsidiyalar o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik davlatning resurslarni optimal taqsimlash strategiyasini ifodalaydi. O'rtacha hosildorlik 2016-yildagi 26,2 sentnerdan 2023-yilda 36,0 sentnerga yoki 37 foizga oshdi. Unumdor hududlarda ajratilgan subsidiyadning samaradorligi yuqori bo'ladi – har bir so'm subsidiya natijasida ko'proq mahsulot olinadi.

Suv ta'minoti va subsidiyalar o'rtasidagi salbiy bog'liqlik territorial adolat tamoyiliga asoslangan. Suv bilan yaxshi ta'minlangan hududlarda sug'orish infratuzilmasi rivojlangan va klasterlar davlat yordamisiz ham barqaror ishlay oladi. 2023-yilda suv tejovchi texnologiyalar 161,6 ming gektar maydonni qamrab oldi, bu esa resurslardan samarali foydalanishga yordam berdi.

Texnika xarajatlarining statistik ahamiyatsizligi bu omilning subsidiyaga bevosita ta'sir qilmasligini bildiradi. 2023-yilda 1100 dan ortiq qishloq xo'jaligi

texnikalari xarid qilinib, texnika bilan ta'minlanish darajasi 92 foizni tashkil etdi. Asosiy vositalar qiymati bilan subsidiyalar o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik yirik ishlab chiqarish resurslariga ega klasterlar davlat tomonidan ko'proq qo'llab-quvvatlanishini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari subsidiya taqsimoti siyosatini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarni belgilaydi. Birinchidan, yoqilg'i narxlari o'zgarishiga tez javob beruvchi dinamik subsidiya mexanizmi zarur. Ikkinchidan, tuproq unumdorligi yuqori hududlarda subsidiya ajratish hosildorlikni rag'batlantirish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilishi kerak. Uchinchidan, suv tanqis hududlarga subsidiya yo'naltirish iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish uchun muhim. To'rtinchidan, asosiy vositalar qiymatiga asoslangan subsidiyadning differensial taqsimoti yirik va kichik klasterlar o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirishi mumkin.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston qishloq xo'jaligi klasterlari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda davlat subsidiyalarining ahamiyatini statistik tahlil asosida o'rganib chiqdi. 2018-2023 yillar davridagi ma'lumotlar tahlili quyidagi asosiy xulosalarni berdi.

Xulosa

Birinchi, yoqilg'i xarajatlari davlat subsidiyalariga eng kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi ($\text{koeffitsient}=1,145$, $p=0,025$, $\beta=1,273$). Bu qishloq xo'jaligida energiya resurslarining muhim ahamiyatga ega ekanligini va yoqilg'i narxlari o'zgarishiga tez javob beruvchi subsidiya mexanizmi zarurligini ko'rsatadi.

Ikkinchi, tuproq unumdorligi subsidiyaga eng kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi ($\beta=12.009$). Bu unumdor hududlarni qo'llab-quvvatlash orqali umumiy ishlab chiqarish hajmini oshirish strategiyasini tasdiqlaydi.

Uchinch, suv ta'minoti yaxshi bo'lgan hududlarda subsidiya kamroq ajratilishi ($\text{koeffitsient}=-1013,992$, $p=0,048$) resurslarni oqilona taqsimlash va territorial adolat printsipligiga asoslanganligini bildiradi.

To'rtinch, asosiy vositalar qiymati yuqori bo'lgan klasterlar davlat tomonidan ko'proq qo'llab-quvvatlanadi ($\text{koeffitsient}=0,054$, $p=0,022$), bu yirik ishlab chiqarish quvvatiga ega tashkilotlarni rivojlantirishga qaratilgan siyosatni ifodalaydi.

Beshinch, OLS regressiya modeli yuqori tushuntirish qobiliyatiga ega ($R^2=0,78$), bu tanlangan o'zgaruvchilarning subsidiya o'zgarishlarining 78 foizini tushuntirishini ko'rsatadi. Model statistik jihatdan ahamiyatli ($F=1950,417$, $p<0,001$) va ishonchli natijalar beradi.

Oltinch, Kreditlarni so'ndirish darajasi 89-97% oralig'ida bo'lib, klasterlarning moliyaviy intizomi yaxshi darajada ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston qishloq xo'jaligining yillik hisoboti: Erishilgan natijalar, tahlillar va tendensiyalar. (2023). Toshkent.

2. Qishloq xo'jaligi statistikasi. (2023). www.stat.uz
3. Bank kreditlari va moliyalashtirish. cbu.uz
4. "Paxta xom ashyosi yetishtiruvchilar faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-23-son qarori. 26.01.2023.
5. "Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlarini moliyalashtirishning uzluksizligini ta'minlash to'g'risida"gi PF-98-son Farmoni. 19.06.2023.
6. "Issiqxona xo'jaliklari moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish va rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-413-son qarori. 02.11.2022.
7. Imtiyozli kreditlar bo'yicha hisobot.
8. Gujarati, D. N., & Porter, D. C. (2009). Basic Econometrics (5th ed.). McGraw-Hill Education.
9. World Bank. (2023). Uzbekistan Agriculture Sector Review. Washington, DC: World Bank.
10. FAO. (2023). Country Programming Framework for Uzbekistan 2022-2026. Food and Agriculture Organization of the United Nations.
11. Better Cotton Initiative. (2023). Better Cotton Standard System. <https://bettercotton.org>
12. Wooldridge, J. M. (2015). Introductory Econometrics: A Modern Approach (6th ed.). Cengage Learning.

O'ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-IJTIMOIIY AHAMIYATI

Mamatov Mirziyod Normurod o'g'li,

TDIU mustaqili tadqiqotchisi,

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti,

"Iqtisodiyot" kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: mamatovmirzied@gmail.com

Orcid: 0009-0000-1476-1685

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati yoritib berilgan. Shu bilan birga jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasida iqtisodiy va ijtimoiy masalalar nazariy jihatdan tadqiq qilingan holda ilmiy ahamiyatga ega tavsiyalar keltirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya va sport sohasi, iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy ko'nikma, sog'lomlashtirish masalalari.*

***Аннотация.** В данной статье освещается экономическое и социальное значение развития физической культуры и спорта в Узбекистане. При этом теоретически изучаются экономические и социальные вопросы развития физической культуры и спорта и даются научно значимые рекомендации.*

***Ключевые слова:** физическая культура и спорт, экономические реформы, социальные навыки, проблемы здоровья.*

***Abstract.** This article highlights the economic and social importance of the development of physical education and sports in Uzbekistan. At the same time, the economic and social issues of*

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vaxabova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2- TOPLAM

2- MAXSUS SON /2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **“Management and Economics Scientific Research Journal”** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114